



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati,

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19021321>

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv yondashuv asosida ekologik tarbiyani tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari hamda uning metodik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan kompleks tahlil etilgan. Maqolada ekologik tarbiyaning shaxs rivojlanishidagi o'rni inklyuziv ta'lim tamoyillari bilan uzviy bog'liqlikda yoritilgan. Inklyuziv ta'lim muhiti ekologik bilim, qadriyat va mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishda teng imkoniyatlar yaratadigan ijtimoiy-pedagogik makon sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, maktab ta'limi, qo'shimcha ta'lim, fanlararo integratsiya, ekologik kompetensiya.

Аннотация. В данной статье на основе инклюзивного подхода комплексно анализируются социально-педагогические возможности организации экологического воспитания, а также его методические основы в научно-теоретическом аспекте. В статье раскрывается роль экологического воспитания в развитии личности в тесной взаимосвязи с принципами инклюзивного образования. Инклюзивная образовательная среда рассматривается как социально-педагогическое пространство, создающее равные возможности для формирования экологических знаний, ценностей и ответственного поведения.

Ключевые слова: экологическое воспитание, экологическое сознание, экологическая культура, устойчивое развитие, школьное образование, дополнительное образование, междисциплинарная интеграция, экологическая компетенция.

Abstract. This article provides a comprehensive scientific and theoretical analysis of the socio-pedagogical opportunities for organizing environmental education based on an inclusive approach, as well as its methodological foundations. The study highlights the role of environmental education in personal development in close connection with the principles of inclusive education. The inclusive educational environment is interpreted as a socio-pedagogical space that creates equal opportunities for the formation of environmental knowledge, values, and responsible behavior.

Keywords: environmental education, environmental awareness, ecological culture, sustainable development, school education, supplementary education, interdisciplinary integration, ecological competence.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Konstitutsiyada ekologik xavfsizlik va qulay atrof-muhitni saqlashga doir normalarning mustahkamlanishi ekologik siyosatning strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda ta'lim tizimi, ayniqsa, maktab muhim ijtimoiy-pedagogik institut sifatida alohida o'rin tutadi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida ekologik tarbiya barcha o'quvchilarning, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ham teng ishtirokini ta'minlagan holda tashkil etilishi



zarur. Inklyuziv yondashuv ekologik tarbiyani differensial, moslashtirilgan va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa maktabning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Maktab ekologik tarbiyani tashkil etishda bir qator ijtimoiy-pedagogik resurslarga ega. Avvalo, u ekologik bilimlarni tizimli va uzluksiz ravishda singdiruvchi muhim ta'limiy makondir. Fanlararo integratsiya asosida ekologik mazmunning o'quv fanlariga singdirilishi o'quvchilarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks anglash imkonini beradi. Inklyuziv muhitda bu jarayon adaptiv o'quv materiallari, multisensor metodlar va individual ta'lim trayektoriyalari orqali ta'minlanadi.

Ikkinchidan, maktab ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi ijtimoiylashuv instituti sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarda tabiatga mas'uliyatli munosabat, ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish g'oyalarini qaror toptirish maktab muhitida samarali amalga oshiriladi. Hamkorlikda o'qitish, jamoaviy loyihalar, ekologik aksiyalar va amaliy mashg'ulotlar inklyuziv ta'lim sharoitida ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi hamda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Uchinchidan, maktab oila va jamoatchilik bilan hamkorlikda ekologik tarbiyani tizimli tashkil etish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy institutlar o'rtasidagi uzviy aloqalar ekologik qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Inklyuziv yondashuv esa bu hamkorlik jarayonida har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olishni talab etadi.

Ekologik tarbiya jarayonida maktabning metodik imkoniyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihaviy faoliyat, muammoli o'qitish, tajribaviy kuzatishlar va o'lkashunoslik ekskursiyalari ekologik ongning faol shakllanishiga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida bunday faoliyatlar moslashtirilgan topshiriqlar, vizual va amaliy materiallar hamda qo'llab-quvvatlovchi pedagogik yordam orqali amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tadigan umumxalq referendumida konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlardan biri ham axolimiz va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni saqlab qolish konstitutsiyaviy kafolatlari yaratilmoqda.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlod, fuqarolarda tabiatga va tabiiy muhitga nisbatan iste'molchilik munosabatini bartaraf qilib, u bilan uyg'unlikda yashash hamda unga mas'uliyatli munosabagai shakllantirishdan iboratdir. Tabiatdaga jamiki narsalar - butun borliq, tevarak-atrof, havo, suv, adiru dadalar, tog'u tosh, o'rmonlarning tozaliga, ularning ifloslanishining oldini olish va muhofaza qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosini asrash, parvarish qilish va ko'paytirish ekologik ta'lim-tarbiya mazmunini tashkil qiladi.

O'tmishda atrof-muhitga e'tiborsiz munosabatda bo'lish, tabiiy resurslardan me'yorida ortiq foydalanish va ekologik talablarni mensimaslik Orol dengizining qurishi, cho'llanish, yer va suv resurslarining tanazzuli, o'simlik va hayvonot dunyosi



genofondining yomonlashuvi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, ko'p miqdordagi sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarning hosil bo'lishi kabi qator global va mintaqaviy ekologik muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu muammolar iqlim o'zgarishi sodir bo'layotgan sharoitlarda yanada yaqqolroq va kuchliroq namoyon bo'lib, zamonaviy O'zbekiston uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilish va uni sog'lomlashtirish masalalarini yanada dolzarb qilib qo'ydi.

1989-yili O'zbekistonda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning viloyat bo'linmalari tashkil etildi. 2008-yilda esa ekologik qonunchilikni takomillashtirish, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ekologiya-salomatlik borasidagi faoliyatlarini jadallashtirish uchun «O'zbekiston ekologik harakati» tashkil etildi va unga bir qator muhim boshqaruv funksiyalari yuklatildi. 2012-yili BMTning GEF fondi tomonidan Urganch davlat universiteti qoshidagi Barqaror rivojlanish uchun ta'lim kafedrasini va Xorazm agro-konsultativ markazi – «KRASS»ga «Amaliy ekologiya»dan maxsus o'quv standartlari va majmualarini yaratish loyihasini qo'llab-quvvatlandi [1. 114-b]. Shu bilan birgalikda 2019-yil 24-yanvarda O'zbekiston ekologik partiyasi tashkil etildi. Bu partiyaning asosiy maqsadi barqaror rivojlanishga, ekologik xavfsizlikga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni saqlash va qulay atrof muhitni yaratishga yo'naltirilgan davlat siyosatini, ro'yobga chiqarishni ta'minlash, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat jamiyat va mamlakatlar har bir fuqarosining vazifasi bo'lishiga erishishga ko'maklashishga qaratilgan.

Ekologik ta'lim va tarbiya quyidagi asosli bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Talaba va o'quvchilarni tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq oling ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar, shuningdek, inson xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri oqibatlarini haqida bilim berish.

3. Talaba va o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash.

Tabiatni sevish, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish, vatannarvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, o'quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Insonning tabiat quchog'ida bo'lishi uni ruhan tetiklashtirib, uning mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini oshiradi. Ekologik tarbiya quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- ❖ kishilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada muayyan malaka xosil qilish;
- ❖ ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishini tarbiyalash;
- ❖ ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash;



❖ kishilarni tabiat «in'omlari»dan to'g'ri foydalanish ruhida tarbiyalash.

Ekologik tarbiya-axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ekologik ta'lim va tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifaning muhimligini va mas'uliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tayyorlash zarur [2. 154-b].

Qo'shimcha ta'lim ekologik tarbiyaning amaliy va motivatsion komponentini kuchaytiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi materiallarida sinfdan tashqari ekologik faoliyat — dala mashg'ulotlari, ekoklublar, jamoaviy aksiyalar, ekologik loyihalar — yoshlarni real muammolarni hal qilish jarayoniga jalb etishi, ularda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishi ta'kidlanadi. Qo'shimcha ta'limning moslashuvchanligi va ixtiyoriyligi o'quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Natijada ekologik bilimlar shunchaki nazariy tushuncha bo'lib qolmay, amaliy xulq-atvorga aylanadi.

Tahlillar va natijalar. O'rganilgan xalqaro manbalar hamda pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiyaning samaradorligi ta'lim muassasasida tizimli yondashuv va ijtimoiy hamkorlikning darajasiga bevosita bog'liq. Xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan “butun muassasa yondashuvi” (whole school approach) konsepsiyasi ekologik tarbiya faqat o'quv dasturi doirasida emas, balki maktab boshqaruvi, infratuzilmasi, pedagogik muhit va hamjamiyat bilan aloqalar tizimida ham aks etgandagina barqaror natija berishini asoslaydi.

Inklyuziv yondashuv nuqtayi nazaridan bu konsepsiya yanada kengroq mazmun kasb etadi, chunki ekologik tarbiya barcha o'quvchilarning, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ham faol ishtirokini ta'minlashi lozim. Demak, ekologik tarbiya maktabning ijtimoiy-pedagogik tizimi doirasida uzluksiz va kompleks jarayon sifatida tashkil etilishi zarur.

Maktab ekologik kompetensiyalarni shakllantirishda metodik va tashkiliy ustunlikka ega ijtimoiy-pedagogik institut hisoblanadi. Fanlararo integratsiya asosida ekologik mazmun biologiya, geografiya, texnologiya, kimyo, ijtimoiy fanlar va til darslari orqali yoritilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim sharoitida bu jarayon adaptiv o'quv materiallari, differensial topshiriqlar va multisensor metodlar orqali amalga oshiriladi. Natijada o'quvchilarda sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish, tanqidiy fikrlash va ekologik muammolarga nisbatan ongli qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bu ekologik ongning kognitiv asosini mustahkamlaydi.

Maktab muhitining o'zi ekologik tarbiyaning amaliy modeli sifatida namoyon bo'ladi. Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni saralash tizimini yo'lga qo'yish, suvdan oqilona foydalanish, yashil hududlarni kengaytirish kabi tashabbuslar ekologik



qadriyatlarni kundalik xulq-atvorga aylantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv muhitda bunday tashabbuslar barcha o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan tarzda tashkil etilganda, ekologik mas'uliyat ijtimoiy integratsiya bilan uyg'unlashadi. Amaliy tajriba bilan boyitilgan maktab muhiti ekologik qadriyatlarning shaxsiy e'tiqod darajasiga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Maktabning ijtimoiy hamkorlik salohiyati ekologik tarbiyaning ta'sir doirasini kengaytiradi. Oila, mahalla, nodavlat tashkilotlar va mahalliy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ekologik loyihalar o'quvchilarda real muammolarni hal etish tajribasini shakllantiradi. Inklyuziv yondashuv bu jarayonda har bir o'quvchining ijtimoiy faolligini rag'batlantirishni nazarda tutadi. Natijada ekologik tarbiya individual ong darajasidan ijtimoiy faoliyat darajasiga ko'tariladi.

- ✓ Tahlillar natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi:
- ✓ ekologik savodxonlik darajasining oshishi;
- ✓ atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatning shakllanishi;
- ✓ jamoaviy faoliyatda ishtirok etish faolligining ortishi;
- ✓ kundalik hayotda ekologik odatlarning paydo bo'lishi (resurslarni tejash, chiqindilarni saralash, yashil tashabbuslarda ishtirok etish);
- ✓ fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishi;
- ✓ ijtimoiy integratsiya va hamkorlik ko'nikmalarining rivojlanishi.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv yondashuv asosida tashkil etilgan maktab muhiti ekologik tarbiyani tizimli, uzluksiz va ijtimoiy ahamiyatga ega pedagogik jarayonga aylantiradi. Maktab o'zining ta'limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalari orqali ekologik ongni shakllantiruvchi, ekologik madaniyatni mustahkamlovchi hamda barqaror rivojlanish g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi strategik ijtimoiy-pedagogik institut sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Shunday qilib, maktab inklyuziv yondashuv asosida ekologik tarbiyani tashkil etishda ekologik bilim, qadriyat va faoliyat komponentlarini uzviy birlashtiruvchi ijtimoiy-pedagogik makon sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlash hamda barqaror rivojlanish g'oyalarini hayotga tatbiq etishga xizmat qiluvchi strategik institut hisoblanadi.

Aytish mumkinki, inson aqliy faoliyatining oliy darajadagi bosqichlaridan biri bu ekologik tarbiyadir. Zero, inson o'zini anglashi va uning atrof muhitga bo'lgan munosabatini ijobiylashtirishi, yani kundalik xayotimizda tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday hatti-harakati oqibatini avvaldan anglab yetishi va shunga yarasha faoliyat ko'rsatishi, tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, har birimiz o'zimizni tabiatning ajralmas bir bo'lagi va uning xaloskori ekanligimizni unutmasligimiz lozim. Shuning uchun ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida tinglovchi va



tarbiyalanuvchilarni ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirib borish har birimizning tabiat oldidagi muqaddas burchimiz bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nigmatov A. N. Ekologiyaning nazariy asoslari: o'quv qo'llanma / A. Nigmatov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 268 b.
2. To'xtayev A. S. Ekologiya. Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. T., «O'qituvchi», 1998. — 192 b.
3. Ahmadul Ergashev, Temur Ergashev. “Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish” “Yangi asr avlodi”, 2005-yil.

